

**MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA SMART-TURIZMDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

Matsapayeva Xilola Bekchan qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Turizm va mehmondo‘stlik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy meros obyektlarida smart-turizm texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi, ularning turizm sohasini modernizatsiya qilishdagi o‘rni hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy samaradorlik omillari yoritiladi. Smart-turizm vositalari orqali madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash hamda turizm infratuzilmasini raqamlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье освещается актуальность внедрения технологий смарт-туризма на объектах культурного наследия, их роль в модернизации туристической отрасли, а также факторы экономической, социальной и культурной эффективности. Анализируются возможности увеличения числа посетителей объектов культурного наследия, улучшения качества обслуживания и цифровизации туристической инфраструктуры посредством инструментов смарт-туризма.

Abstract. This article highlights the relevance of implementing smart tourism technologies at cultural heritage sites, their role in modernizing the tourism sector, and factors contributing to economic, social, and cultural effectiveness. The possibilities of increasing the number of visitors to cultural heritage sites, improving the quality of services, and digitalizing tourism infrastructure through smart tourism tools are analyzed.

Kalit so‘zlar. Smart-turizm, madaniy meros, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, virtual turizm, geolokatsiya, innovatsion xizmatlar.

Ключевые слова. Смарт-туризм, культурное наследие, цифровые технологии, мобильные приложения, виртуальный туризм, геолокация, инновационные услуги.

Key words. Smart tourism, cultural heritage, digital technologies, mobile applications, virtual tourism, geolocation, innovative services.

Bugungi globallashtirish jarayonida turizm sohasi iqtisodiy o‘shishning muhim tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, madaniy meros obyektlariga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi bu sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Smart-turizm konsepsiyasi - turistik xizmatlarni raqamlashtirish, tahlil qilish va shaxsiylashtirishga asoslangan innovatsion yondashuvdir [1]. Bu bo‘yicha tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi turizm sohasida zamonaviy raqamli yechimlarni qo‘llashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [2]. Shu bois, madaniy meros obyektlarida smart-turizm imkoniyatlarini joriy etish turistik tajribani yaxshilaydi va milliy merosni saqlash va targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Turizm sohasi global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, madaniy meros turizmi dunyo bo‘yicha turistlar oqimining qariyb 40 foizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan olganda, madaniy meros obyektlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va ularni xalqaro darajada targ‘ib etish muhim vazifaga aylanmoqda. Smart-turizm texnologiyalari (mobil ilovalar, sun‘iy intellekt, QR-kodlar, virtual turlar va interaktiv xaritalar) madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchilar uchun qulay, tezkor va innovatsion xizmatlarni

taqdim etadi. Bu esa turistik tajribani yaxshilash, axborotga ochiqlikni ta'minlash va milliy madaniyatni zamonaviy formatda namoyish etish imkonini beradi.

O'zbekistonning boy madaniy merosi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalar YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu obyektlarda smart-turizm yechimlarini joriy etish nafaqat xorijiy sayyohlar sonini oshiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham kuchaytiradi [3]. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi va "2022-2026-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi"da raqamli infratuzilmani kengaytirish, madaniy obyektlarni onlayn platformalar orqali targ'ib qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [4]. Demak, madaniy meros obyektlarida smart-turizm imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Smart-turizm axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va big data asosida turizm jarayonlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish tizimini ifodalaydi. Smart-turizm konsepsiyasi mobil ilovalar va QR-kodli yo'riqnomalar, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari, interaktiv xaritalar va geolokatsion xizmatlar va onlayn bronlash va to'lov tizimlari kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shunga tegishli madaniy meros obyektlarida smart-turizm texnologiyalarini joriy etish orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi [5]:

- virtual turlar: foydalanuvchilar masofadan turib muzey, madrasalar yoki tarixiy yodgorliklarni 3D formatda ko'rishlari mumkin;
- mobil gidlar: GPS asosidagi ilovalar orqali sayyohlarga joy haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yetkaziladi;
- raqamli axborot panellari: ko'p tilli interaktiv ekranlar orqali tarixiy obyektlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda "Smart Tourism Uzbekistan" loyihasi doirasida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning madaniy meros zonalarida interaktiv xaritalar, elektron chiptalar va virtual gidlar joriy qilindi [6]. Xususan, "Ichan qal'a" majmuasida AR (augmented reality) tizimi orqali tarixiy obidalarni 3D modellashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu borada O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar madaniy meros obyektlarida smart-turizmni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Smart-turizm konsepsiyasi faqatgina texnologik yangilik emas, ya'ni madaniy merosni saqlash va targ'ib etishda yangi paradigma sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, smart-turizm texnologiyalarini joriy etish madaniy obyektlarga tashrif buyuruvchilar sonini oshiradi, ularning tajribasini shaxsiylashtiradi hamda obyekt haqidagi axborotni oson, tezkor va interaktiv tarzda yetkazadi. Masalan, "Ichan qal'a" majmuasida AR (kengaytirilgan reallik) tizimi orqali sayyohlar tarixiy inshootlarning dastlabki ko'rinishini virtual tarzda tomosha qilish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa axborot yetkazish sifatini va sayyohlarning hissiy qoniqish darajasini oshirgan. Biroq, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, ko'plab madaniy meros obyektlarida internet infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa raqamli xizmatlardan foydalanishni cheklaydi. Ikkinchi muammo esamalakali IT-mutaxassislar va raqamli gidlar yetishmasligidir. Turizm xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish smart-turizmning muvaffaqiyatli joriy etilishida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, smart-turizm tizimlarini ishlab chiqishda milliy mentalitet, til va madaniy o'ziga xosliklarni hisobga olish zarur. Boshqacha aytganda, global texnologiyalarni to'liq o'zlashtirish bilan birgalikda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish barqaror natija beradigan yo'lni aks ettiradi. Xorijiy tajriba ham bu borada ibratli misollarni taqdim etadi. Masalan, Janubiy Koreya va Yaponiya

shaharlarida madaniy obyektlarda NFC-chiplar, mobil audio-gidlar, virtual muzeylar va 3D rekonstruksiya texnologiyalari keng joriy etilgan. O'zbekistonda ham shunday innovatsion yechimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ammo, ular hali to'liq integratsiyalashmagan. Shu nuqtai nazardan olganda, davlat siyosatida smart-turizmni rivojlantirishga doir huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish, xususiy sektor va IT-startaplarni jalb etish zarur. Smart-turizm iqtisodiy foyda va madaniy merosning saqlanishi va yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish vositasini ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarida smart-turizmni rivojlantirish O'zbekiston turizm sohasining raqamli transformatsiyasida muhim bosqich hisoblanadi. Smart-turizm texnologiyalarining joriy etilishi natijasida turistik xizmatlar sifati yaxshilanib, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun qulay, tezkor va interaktiv muhit yaratiladi. Ushbu jarayon madaniy obyektlarni saqlash, ularga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda milliy merosni xalqaro miqyosda targ'ib etishga xizmat qiladi. Chunki, smart-turizm konsepsiyasi faqat axborot tizimi emas, ya'ni madaniy merosni asrab-avaylash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqamli tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir.

Fikrimizcha, madaniy meros obyektlarida smart-turizmdan foydalanish imkoniyatlari quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

- smart-turizm madaniy meros obyektlarida tashrif buyuruvchilar sonini oshirish va ularning qoniqish darajasini yaxshilash imkonini beradi;

- raqamli yechimlar (mobil ilovalar, VR/AR va QR-kodlar) madaniy obyektlar haqida interaktiv va ko'p tarmoqli axborot olishni ta'minlaydi;

- smart-turizm texnologiyalari madaniy merosni saqlashga, ayniqsa, jismoniy ta'sirni kamaytirish orqali yordam beradi;

- O'zbekiston sharoitida bu jarayon turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros obyektlarida smart-turizmdan foydalanish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim:

- **yagona smart-turizm platformasini yaratish;**

- **madaniy meros obyektlari uchun QR-kodli identifikatsiya tizimini ishlab chiqish;**

- **AR/VR texnologiyalarini keng joriy etish;**

- **raqamli kadrlar tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish;**

- **xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;**

- **davlat-xususiy sheriklik mexanizmini kuchaytirish.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buhalis D. & Amarangana A. Smart Tourism Destinations: Enhancing Tourism Experience through Digital Transformation. Springer, 2020.

2. Gretzel U. Smart tourism and visitor experience personalization. Tourism Review, 2021.

3. UNESCO Uzbekistan Report: AR integration in Ichan Qal'a Heritage Site, 2023.

4. O'zbekiston Respublikasi AKT vazirligi hisobotlari, 2024.

5. Turizm qo'mitasi ma'lumotlari, 2023. www.uzbektourism.uz

6. Karimov F. Smart-turizm va madaniy meros integratsiyasi masalalari. – "Innovatsion iqtisodiyot" jurnali, 2022.